



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

# TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

**2024-YIL YANVAR-SENTABR (DASTLABKI MA'LUMOT)**



Sanoat statistikasi  
boshqarması  
Tel.: 71-203-88-07


Sanoat statistikasi  
boshqarması  
Tel.: 71-202-80-46

## Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2024 - yil yanvar- sentabr oyida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida shahar korxonalarini tomonidan 126,2 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 108,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (82,6 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 104,3 trln.so'mni tashkil etdi.




**B** – Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** – Ishlab chiqaradigan sanoat  
**D** – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E** – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 5,2% ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 16,8% ga, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 20,6 % ga, o'sishi kuzatildi Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 3,6 % ga o'sish kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.





Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-sentabr oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,9 trln so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 12,6 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-sentabr oyida, % da)




### Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



**Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari  
tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar - sentabr	2024-yil yanvar - sentabr	Farqi +/-
<b>Neft, ming t.</b>	491,5	465,5	-26,0
<b>Tabiiy gaz, mln. kub.m.</b>	24 359,7	23 847,9	-511,8
<b>Gaz kondensati, ming t.</b>	486,1	522,4	36,3
<b>Chaqiq tosh ming t.</b>	341,1	249,6	-91,5

**Ishlab chiqaradigan sanoat**




2024-yilning yanvar-sentabr oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 104,3 trln.so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 105,2 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,  
(2024- yil yanvar-sentabr oyi% da)**




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,1 % ni (2023-yilning yanvar-sentabr –oyida – (4,2%), o'rta-yuqori texnologiyali – 21,1 % (23,4%), o'rta-quyi texnologiyali – 35,0 % (32,1%) va quiyi texnologiyalisi – 39,9 % (40,3%)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 25,1 % (2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 100,7 %), mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 25,9 % (2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 109,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 15,1 % (2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 102,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,9 % (2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 103,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,4 % (2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 109,5 %) ni tashkil etdi

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

2024-yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 6119,9 tonna Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar (53,1 % ga oshgan), 32 493,4 tonna paxatadan yigirilgan ip (8,3 % ga oshgan), 1121,1 ming dona Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar (74,6 martaga oshgan)




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari  
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar- sentabr	2024-yil yanvar- sentabr	Farqi +/-
<b>Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna.</b>	104,7	53,0	-51,7
<b>Paxtadan yigirilgan ip, ming tonna.</b>	25,8	32,5	6,7
<b>Margarin va yormalar tonna.</b>	2814,4	0	-2814,4
<b>Pivo – mln litr</b>	76,9	82,3	5,4
<b>Sovutgich va muzlatgichlar - ming dona</b>	577,9	320,6	-257,3
<b>Tamaki mahsulotlari, mln. dona</b>	1485,9	2675,0	1189,1
<b>Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, tonna</b>	13246,0	12690,9	-555,1

## Metallurgiya sanoati ( 2024- yil yanvar- sentabr oyida)



**FHI**  
**% da**




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oyida metallurgiya sanoati ulushi 14,4% ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 17,9% ga ko'paygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-sentabr oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 15,1% ni tashkil qilib, fizik hajm indeksi esa, 102,1 va ishlab chiqarish hajmi 15 739,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (yanvar- sentabr oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,1% ni, uning fizik hajm indeksi esa 3,5% ga oshgan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-sentabr oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 105,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 6 086,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(yanvar- sentabr oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi ulushi 12,8% ni, uning fizik hajm indeksi esa 3,6 % ga kamaygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-sentabr oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 13,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,7% ni va ishlab chiqarish hajmi 14 181,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI  
% da**



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-sentabr oyida)

**FHI  
% da**



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,8% ni, uning fizik hajm indeksi esa 1,1% ga kamaygan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-sentabr oyi yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,0% ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 92,9% ni va ishlab chiqarish hajmi 11 436,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-sentabr oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,4% ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 99,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-sentabr oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,8% ni tashkil etib, fizik hajm indeksi 105,3% ga tashkil qilib, ishlab chiqarish hajmi 5 059,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

FHI  
% da




## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-sentabr oyida)



FHI  
% da



2023-yilning yanvar-sentabr oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,9% ni, fizik hajm indeksi esa 105,4% ni tashkil etgan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-sentabr oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi 97,4% ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1 949,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.


## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (yanvar-sentabr oyida)

2023-yilning yanvar-sentabr oyi yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 122,4 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-sentabr oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7% ni, fizik hajm indeksi 1,5% ga kamaydi, ishlab chiqarish hajmi esa 3 857,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



FHI  
% da



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish (yanvar-sentabr oyida)




2023-yilning yanvar-sentabr oyi yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 40,1% ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-sentabr oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4% ni, fizik hajm indeksi 2,7 martaga ko'paygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 343,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar-sentabr oyida)

FHI  
% da



2023-yilning yanvar-sentabr oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 0,5% ga oshgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-sentabr oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0% ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 113,1% ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 4 147,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.


## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

(yanvar-sentabr oyida)

2023-yilning yanvar-sentabr oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,4% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 112,8% ni tashkil etdi.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-sentabr oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,7% ni, fizik hajm indeksi 117,4% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4 867,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.

FHI  
% da



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar-sentabr oyida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,0 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,9% ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-sentabr oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,6% ga oshgani kuzatildi.


### **Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar-sentabr oyida, % da)**



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr	2024-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	2 926,6	2 641,2	-285,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	7 513,3	6 324,1	-1 189,2
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, mln so'm.	692,4	917,3	224,9

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (yanvar-sentabr oyida)



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,1 trln.soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9% ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar-sentabr oyida, % da)



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr	2024-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.soʻm	139,0	285,0	146,0
Xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy, tonna	203,3	183,2	-20,1
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. soʻm	247,7	467,5	219,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 71,6% ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,1 martaga, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 88,7 foizga o'sish kuzatildi.

**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi  
tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
**(2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,2 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrida 1 175 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**

*Tel.: (71) 203-88-16*